


V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 2022- yil 1- iyul holatiga 26,6 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 61,8 % ni tashkil etdi. Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.


Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 2022- yil 1- iyul holatiga



Ma'lumot uchun: 2022- yil 1-iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 932 mingtaga ortdi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan va kichik biznes subyektlariga tegishli korxonalar va tashkilotlar soni 1 553 mingtaga ortishi kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarda 111,2 % ni tashkil etdi. Ularning soni 1 274 mingtaga ortdi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 101,9 % ni tashkil etib, ularning soni 38 taga ko'paydi.

2022- yil 1- iyul holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2022- yil 1- iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (29,4 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.


Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,4 % ga teng bo'ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor
xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan % da</i>
Jami – xizmatlar	8 048,9	111,0	100,0
<i>jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	389,5	125,1	4,9
moliyaviy xizmatlar	1 644,6	112,9	20,4
transport xizmatlari	1 600,9	108,6	19,9
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmati	1 557,4	108,2	19,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	145,3	112,8	1,8
savdo xizmatlari	2 512,0	107,4	31,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	217,3	111,0	2,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	374,6	116,7	4,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	132,0	106,5	1,6
ijara xizmatlari	195,0	116,1	2,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	187,4	111,0	2,3
shaxsiy xizmatlar	392,6	112,0	4,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	64,8	118,6	0,8
boshqa xizmatlar	192,9	115,5	2,4


Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,2 %), moliyaviy xizmatlar (20,4 %), transport xizmatlari (19,9 %) tashkil etadi. Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,7 %), yashash va ovqatlanish kabi xizmatlar (1,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, shuningdek, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,8 %) egalladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2022- yil yanvar-iyun, jamiga nisbatan % da)




Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 31,2 % - eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulush 82,7 % ni tashkil etadi.



2017-2022- yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida moliyaviy xizmatlar – 112,9 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 116,7 %, aloqa va axborotlashtirish – 125,1 % va transport xizmatlari – 108,6 % ko'rsatkich bilan yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %
(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)**



Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 112,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari boshqa xizmatlari (115,5 %), Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari (111,0 %) va ijara xizmatlarida (116,1 %) qayd etildi.

Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari – 31,2 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Savdo xizmatlari hajmining oshish omillari yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Xizmatlar tarkibida transport xizmatlarining jami hajmga nisbatan ulushi 19,9 % ko'rsatkichga ega.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlar yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlar (1,8 %), shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,8 %) ga to'g'ri kelgan.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish
(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-iyunga nisbatan %</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-iyunga nisbatan %</i>
Andijon viloyati	8 048,9	111,0	100,0	2 462,4	108,7
<i>shaharlar:</i>					
Andijon	2 756,6	112,0	34,2	5 981,0	109,8
Xonobod	259,5	107,4	3,2	5 870,9	105,2
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko‘l	340,9	111,0	4,2	1 835,7	108,4
Andijon	461,0	111,2	5,7	1 674,6	108,5
Baliqchi	381,3	111,3	4,7	1 834,2	109,2
Bo‘ston	209,5	106,6	2,6	2 789,0	104,2
Buloqboshi	292,3	111,0	3,6	1 980,4	109,0
Jalaquduq	297,5	111,1	3,7	1 547,1	109,0
Izboskan	413,2	110,6	5,1	1 676,2	108,6
Ulug‘nor	212,5	106,8	2,6	3 421,3	104,4
Qo‘rg‘ontepa	433,8	111,6	5,4	1 945,2	109,6
Asaka	498,8	111,7	6,2	1 460,3	109,3
Marhamat	333,0	110,3	4,1	1 853,9	108,0
Shahrixon	450,3	111,5	5,6	1 445,6	109,2
Paxtaobod	417,1	110,0	5,2	2 078,3	107,6
Xo‘jaobod	291,6	109,6	3,6	2 540,3	107,1

1) Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo‘shgan holda

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Andijon shahar (112,0 %) va Asaska tumani (111,7 %)ga to‘g‘ri keldi.

Nisbatan past o‘shish sur‘atlari Xo‘jaobod tumani (109,6 %), Xonobod shahri (107,4 %), Ulug‘nor tumani (106,8 %) va Bo‘ston tuman (106,6 %) larida kuzatildi.


Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning 51,0 % dan ortig‘i Andijon shahri (34,2 %), Asaka tumani (6,2 %), Andijon tumani (5,7 %) va Shahrixon (5,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Nisbatan past ulushga ega tumanlar Bo‘ston va Ulug‘nor tumanlarida (2,6 %) kuzatildi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 462,4 ming so'mni tashkil qildi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Andijon shahrida 2 756,6 ming so'mdan Bo'ston tumanida 209,5 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-iyun oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 5 981,0 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,8 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Qo'rg'ontepa (109,6 %), Asaka (109,3 %), Shahrixon (109,2 %) va Baliqchi (109,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi, Asaka (1 460,3 ming so'm), Shahrixon (1445,6 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini, yetarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog'liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.